

## Is Gazi (CO) Ning Tabiatda Tarqalishi

*Xujayeva Rayhon Polvonboy qizi<sup>1</sup>*

**Anatatsiya:** Ushbu maqolada zaharli gazlardan biri hisoblangan is gazi va uning paydo bo'lishi, tabiatda tarqalishi, inson organizmiga zarar keltirishi, insonlarni zaharlanishiga sabab bo'lishi haqida so'z boradi. Is gazi organizmga nafas a'zolari orqali ta'sir etadi. Ushbu gaz gemoglobin bilan kislorodga nisbatan 300 marotaba kuchli birikma - karboksigemoglobin hosil qiladi. Oqibatda gemoglobinning to'qimalarga kislorod tashish xususiyati keskin pasayib, gipoksiyaga, og'ir xolatlarda esa - anoksiyaga olib kelishi xamda shu tariqa inson hayotdan ko'z yumishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** CO, is gazi, zaharlanish, azot, inert gaz, kislorod, karbonat, vodorod va h.k.z.

Ma'lumki is gazi (CO) rangsiz, hidsiz, korxonalar sharoitida eng ko'p uchraydigan zaharli birikma bo'lib, tabiiy gaz, yoqilg'i, ko'mir, o'tin cho'g'lari to'liq yonmasligi oqibatida xosil bo'ladi. Tutun tarkibida 3%, ishlangan gazda 13%, portlovchi gazlar tarkibida esa 50-60% gacha is gazi bo'ladi.

Is gazidan shamollatish tizimi yaxshi ishlamaydigan organik moddalarni ishlab chiqaradigan korxonalarda, avtoulavlar turar parklarda, yangi bo'yalgan va shamollatilmagan xonalarda, shuningdek uy sharoitlarida tabiiy gaz chiqib turganda va pechka bilan istiladigan uylar, hammomlarda, dam olish palatkalarida yonuvchi moddaning to'liq yonmasligi natijasida zaharlanish mumkin.<sup>2</sup>

Is gazi organizmga nafas a'zolari orqali ta'sir etadi. Ushbu gaz gemoglobin bilan kislorodga nisbatan 300 marotaba kuchli birikma - karboksigemoglobin hosil qiladi. Oqibatda gemoglobinning to'qimalarga kislorod tashish xususiyati keskin pasayib, gipoksiyaga, og'ir xolatlarda esa - anoksiyaga olib kelishi xamda shu tariqa inson hayotdan ko'z yumishi mumkin. Is gazining katta miqdori tarkibida temir moddasi bor. Nafas olish fermentini parchalaydi. Bu o'z yo'lida, to'qimalarning nafas olish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Is gazi bilan zaharlangan organizmda uglerod va oqsil almashinuvi buziladi, natijada, asidoz alomatlarini yuzaga keladi. Qon tarkibida kaliy va kaltsiy muvozanati markaziy nerv sistemasi faoliyati buziladi. Bosh miyada bosimning oshishi, miyaga va yurak mushaklarida qon aylanishi kuzatiladi. Organizmga kislorod yetishmasligi oqibatida markaziy nerv sistemasi faoliyati buziladi. Shu tariqa inson hayotdan ko'z yumishi mumkin. Tabiiy gazning xonada to'planishi oqibatida yong'in yoki portlash sodir bo'ladi hamda buning natijasida inson turli tan jarohati olishi mumkin.<sup>3</sup>

Tabiiy gazning asosiy tarkibiy qismini (92...99%) metan tashkil etadi, qolgan qismini uglerod ikki oksidi, yonuvchi vodorod, azot, is gazi, suv bug'lari, oltingugurtli vodorod, ammiak va boshqalar tashkil qiladi. Sun'iy gazlar qattiq va suyuq yonilg'ilarni qayta ishlash jarayonida olinadi, jumladan, sanoat gazi (domna, koks, yorituvchi), generator gazi (qattiq yonilg'ilarni gazga aylantirishda) va boshqalar. Insonlar uchun ularning tarkibi va xossalari, shu jumladan, yonish issiqligi keng ko'lamda o'zgaradi. Odatda, ular turli holdagi yonuvchi va inert gazlarning aralashmasidan iborat. Ularning tarkibiga yonuvchi gazlar: metan, propan, butan, CnHm formulali boshqa uglevodorodlar, vodorod, is gazi va, shuningdek, inert gazlar va ifloslantiruvchi moddalar (karbonat angidrid, azot, namlik, smola xolidagi moddalar, mexanik zarrachalar, oltingugurtli birikmalar) Tahlillarga ko'ra, is gazidan zaharlanish holatlarining aksariyati quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelmoqda: Fuqarolar tomonidan gaz va muqobil yoqilg'i (ko'mir, o'tin va boshqa) turlaridan foydalanishda xavfsizlik choralariga rioya etmaslik; Nostandart (qo'lbola yasalgan) yoki sertifikatga ega bo'lmagan isitish pechlari va anjomlaridan foydalanish; Isitish pechlarining dudburonlarini noto'g'ri o'rnatish; Gaz yoki boshqa muqobil yoqilg'iga moslashtirilgan isitish pechlari (anjomlari)ni dam olish (uxlash) xonalariga olib kirish; Xavo almashmaydigan isitishda ochiq olov (ko'mir va o'tin cho'g'lari)dan foydalanish; Xavoni almashtiruvchi shamollatish shaxtalari yoki tuynuklarni berkitib (to'sib) qo'yish. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablarga ko'ra isitish uchun foydalanilayotgan yoqilg'i (gaz, ko'mir, o'tin va boshqa)ni chala yonishi natijasida is gazi xosil bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Z. Sobirov Organik Kimyo-Toshkent Aloqachi 2005
2. Organik Kimyo-Asqarov-G'.G'ulom nashriyoti 2012
3. Sobirov J. X. O., Komiljanova E. U. Q., Sharifboyeva H. I. Q. XORAZM VILOYATIDA AGRAR SOHANING EKSPORT SALOHİYATINI KENGAYTIRISHDA AYRIM NOAN'ANAVIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA RIVOJI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 38-42.

<sup>1</sup> Urganch davlat universiteti talabasi

<sup>2</sup> .Z. Sobirov Organik Kimyo-Toshkent Aloqachi 2005

<sup>3</sup> .Z. Sobirov Organik Kimyo-Toshkent Aloqachi 2005

4. Kuzibayevna K. D. et al. Drying of the Aral Sea and changes in the landscape of the Aral Sea region //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 4. – C. 108-110.
5. Islambayevna M. M. et al. PROSPECTS FOR SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF KOSHKOPIR DISTRICT //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 1375-1378.
6. Amanov A. K. et al. ECONOMIC AND GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE FORMATION OF NAVOI FREE ECONOMIC ZONE //Thematics Journal of Geography. – 2021. – T. 6. – №. 1.